

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA O'QITUVCHILARNI RAG'BATLASH METODIKASI

Dosmagambetova Elmira
*Nukus davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich talim fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ona tilidarslarida foydalanishga tavsiya etiladigan interfaol metodlardan namunalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *intefaol, innovatsion texnologiya, charxpalak, taqdimot usuli, tanlash, ixtiyoriy, bajarish, majburiy, imkoniyat, metod, texnologiya.*

Ma'lumki, muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o'z darslarida qo'llasa, albatta ijobjiy natijaga erishadi. Bugungi kun o'qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta'lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta'minlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim va hayotiy ko'nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o'tilgan mashg'ulotlarda amalga oshirish mumkin.

Innovatsion texnologiya – ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo'llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari. Uning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida o'qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg'ulotga aylanadi.

Ko'p yillar davomida an'anaviy dars o'tish ta'limning asosiy shakllaridan biri bo'lib keldi. An'anaviy darsda o'qituvchi faol, o'quvchi esa passiv ishtirokchiga aylanadi. Bu esa o'quvchining mustaqil fikrlashi, izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bunday darslar yaxshi samara bermaydi. Bugungi davr talabi dars jarayonini noan'anaviy tarzda mazmunli tashkil etish, o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlashni taqozo etadi.

Noan'anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim bo'g'in hisoblanadi. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro faol munosabatlarda tashkil etiladigan mashg'ulot turidir. Bunda o'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorlikda ishlaydi. Fikrlar to'qnashushi yuzaga keladi. O'quvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pog'onaga

ko'tariladi. O'qituvchi shu tarzda o'quvchilarni faollashtiradi, o'zlashtirishi past o'quvchilar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi.

Ta'lim uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, uning sifati darsda qo'llanilgan metodlarga bog'liq. Darsning mazmunli o'tishi, unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o'qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi. Darsda metodlar to'g'ri tanlansa, maqsadga tez va oson erishiladi. Interfaol metodlarni tanlash har bir darsning didaktik maqsadidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bu esa o'qituvchidan har doim bir xil usulda emas, dars mavzusiga mos metodlar asosida dars o'tishni talab etadi. Buning uchun o'qituvchi doimo o'z ustida ishlashi, bilim va kasbiy malakasini oshirib borishi, ilm-fan yangiliklaridan xabardor bo'lishi va o'z faoliyatida ulardan samarali foydalanishi lozim. O'qituvchi bir vaqtning o'zida ijodkor, aktyor va fan bilimdoni bo'lса, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda darsning mazmuni, o'quvchilarga yetkazish usul va shakllari, vositalarini oldindan belgilab, mavzuga mos metodni tanlasagina dars samaradorligi yuqori bo'ladi.

Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan. Keng qo'llaniladigan usullar – "Klaster", "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Taqdimot", "Blits-so'rov", "Muammoli vaziyat" kabilardan foydalanib, darsda samarali natjalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida "Sinkveyn", "Teskari test", "Aql charxi" metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida "Insert", "Pinbord", "Zinama-zina", "Bumerang" texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti", "Nima uchun?", "Qanday?", "Konseptual jadval", "Nilufar gul" kabi grafik tashkil etuvchilar hamda "Tushunchalar tahlili", "T-jadval", "Rezyume", "Kungaboqar", "Charxpalak" metodlarini, uyga vazifa berishda "FSMU", "Klaster", "BBXB" metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

Ona tilidarslarida ham yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan tashqari "Ha... yo'q", "Ta'rif egasini top", "Men kimman?", "Domino" kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin vaqtida o'quvchilar o'zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o'quvchida ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi. Munozaraga kirishishni o'rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asaosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda ishlataladigan texnologiya o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh tabiatи va sharoitga qarab tanlanadi.

"Charxpalak". Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan mavzularni esga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berish va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan. Bu usulni qo'llashdan maqsad o'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon

eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatishdir. Ushbu texnologiya ona tili va adabiyot darslarining boshlanishi va oxirida yoki biron-bir bo'lim tugallanganda o'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo'ljallangan.

“Charxpalak” texnologiyasi quyidagicha amalga oshiriladi:

- o'quvchilar sharoitga qarab guruhlarga ajratiladi;
- tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi;

- belgilangan vaqt ichida guruhlar tarqatmadagi topshiriqni bajarib, uning o'ng burchagiga guruh raqamini, chap burchagiga esa o'zining ramziy belgisini qo'yib ushbu tarqatmani keying guruhga “charxpalak aylanmasi” yo'nalishida almashtiradilar;

- boshqa guruh a'zolari ham tarqatmadagi vazifani bajaradilar va o'zgartirishlar kiritadilar;

materialning oxirgi almashishidan so'ng har bir guruh o'zi ilk bor to'ldirgan tarqatmani o'z ramziy belgisi asosida tanlab oladi;

- o'qituvchi tarqatma materialda berilgan vazifalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javobni belgilaydi yoki tarqatma materialdagi vazifalar ekranda yoritilib, to'g'ri javob aytib o'tiladi;

- har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblaridagi farqlarni aniqlaydilar va o'zlarini baholaydilar.

“Charxpalak” texnologiyasidan foydalangan holda mashg'ulot o'tkazish uchun o'quvchilarga quyidagicha vazifa berish mumkin:

So'z ma'nosining ko'chish usullari.

Vazifa: Berilgan gaplardagi ma'no ko'chish usullarini aniqlab, tegishli katakka “+” yoki “*” belgisini qo'ying.

Baholash:

9-10 ta to'g'ri javob – “a'lo”

7-8 ta to'g'ri javob – “yaxshi”

6 ta to'g'ri javob – “qoniqarli”

“Taqdimot” usuli. Ushbu usulda ma'lum bir mavzu yoki bo'limlar yakunida o'tkaziladigan takrorlash darslarini tashkil qilish mumkin. Bunda o'quvchilar yakka tartibda, juftlikda yoki guruhlarda ishlab, berilgan mavzu bo'yicha mustaqil izlanib, materiallar to'playdi, ularni saralaydi, asosiyalarini tanlab olib taqdimot qiladi. Masalan “Alisher Navoiy hayoti va ijodi” mavzusida taqdimot darsi o'tkazilganda o'quvchilarni avvaldan guruhlarga bo'lib, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha taqdimot qilish topshiriladi:

1-guruh. Alisher Navoiy hayoti va faoliyatini xronologik jadval asosida tushuntiring.

2-guruh. Alisher Navoiy ijodini “Klaster” usuli asosida tushuntiring.

3-guruh. Alisher Navoiy lirikasini “Kungaboqar” usuli asosida tushuntiring.

4-guruh. Alisher Navoiyning “Xamsa” asarini konseptual jadval asosida tushuntiring.

Har bir guruh berilgan yo'nalishlar bo'yicha darslik va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib ma'lumot to'playdilar va slayd yoki chizmalar orqali taqdimot qiladilar.

"Taqdimot" darslari orqali o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni shakllantirishga erishish mumkin:

- o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qilish;
- axborot manbalaridan foydalana olish, zarur ma'lumotlarni izlab topish, tahlil qilish, saralash orqali ma'lumotlar bazasini yarata olish;
- o'qib o'rghanish, bilimini mustaqil ravishda oshirib borish, o'qib o'rganganlarini o'rtoqlari bilan muhokama qilish, o'zini nazorat qila bilish kabi sifatlarga ega bo'lish;
- sinfda va jamiyatda o'z o'rnini anglay olish va boshqalar.



1-guruh taqdimoti

Alisher Navoiy hayoti va faoliyati

1441-yil 9-fevral	• Hirotning Bo'g'i Davlatxona staluishi joyida tug ildi.
1447-yil	• Ojalan bilan Iroqqa ko'chib ketadi va yo'lda Sharafiddin Ali Yaxdiy bilan uchrashadi.
1451-yil	• Hirota qaytadi.
1456-1464-yillar	• Mashhadda yashadi va o'qidi.
1466-1469-yillar	• Sam'arqandda yashadi va madrasalarda talim oldi.
1469-yil	• Husayn Boyqaro Hirot taxtimi egallagach, unu Hirota chaqirib, muhrorlik vasifamiga tayinlaydi.
1472-1476-yillar	• Bosh vazir lavosimida faoliyat yuritadi.
1476-1486-yillar	• Davlat ishlardan chetlashib, badhiy ijod bilan shug'ullanadi.
1487-1488-yillar	• Astrobod shahriga hokimlik qiladi.
1499-yil	• O's iltimosiga ko'ra Hirotdagi Koja Abdulla Ansoriy xona qohiga joyubkash qilib tayindangan.
1501-yil 3-yanvar	• Hirotda vafot etdi.

Xronologik jadval

2-guruh taqdimoti



4-guruh taqdimoti 3-guruh taqdimoti

“Kungaboqar” usuli

Alisher Navoiy lirikasi

Konseptual jadval

“Xamsa”

dostoni

“Xamsa” dostonlari			Ta’riflar, toifalar, xususiyatlar va b.			
Yozilgan yili	Hajmi	Asosiy mavzusi	Vazni	Bosh qahramon-lari		
“Hayrat ul-abror”	1483-yil	3988 bayt, 64 bob, 20 maqolat	falsafiy- ta’limiy doston	aruzning sari’ bahrida		
“Farho d va Shirin”	1484- yil	59 bob, 5782 bayt	sevgi- muhabbat	aruzni ng hazaji musaddasi mahzuf bahrida	Farhod	
“Layli va Majnun”	1484- yil	36 bob, 3622 bayt	sevgi- muhabbat	aruzni ng hazaji musaddasi axrabi maqbuzi makfuf bahrida	Qays	
“Sab’ai sayyor”	1484- yil	38 bob, 5000 bayt	ishqiy- sarguzasht doston	aruzni ng hafif m bahrida	Bahro	

“Tanolash ixtiyoriy, bajarish majburiy” usuli. Bunda o’quvchilar darslikdagi mashqning shartida keltirilgan topshiriqlarni o’zi ixtiyoriy ravishda badiiy asar, boshqa darsliklardagi matn, materiallar asosida bajarishlari kerak. Natijada o’quvchilarda mustaqil o’qib o’rganish, o’zining qiziqish va qobiliyatlarini namoyon qila olish ko’nikmalari shakllanadi. “Imkoniyat” usulida semestr yakunida o’zlashtirishi yuqori bo’lgan o’quvchilarga o’rganilgan mavzular bo’yicha javobi tanlanadigan va javobi yoziladigan testlar tuzib kelish topshiriladi. Bu vazifani a’lo darajada bajargan o’quvchilar yakuniy nazorat ishlarini topshirishdan ozod qilinadi. Test tuzgan o’quvchilarda test yechgan o’quvchiga nisbatan quyidagi ko’nikmalar shakllanadi: - o’z fikrini yozma tarzda izchil, aniq, tushunarli bayon qila olish; - mavzudan kelib chiqib savollarga javob berish va o’zi ham savollarni mantiqan to’g’ri qo’ya olish; - axborotlarni izlab topish, saralash, tanlash va tahlil qila olish; - bilimini

mustaqil ravishda oshirib boorish va uni amaliyotda qo'llay olish kabilar. Yuqorida keltirilgan interfaol metodlarni ona tili va adabiyot darslarida qo'llash natijasida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, o'zlarining fikrini erkin bayon eta olishga, atrofidagilarning fikrlarini hurmat qilishga, o'zining nuqtayi nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin. “Saddi Iskandariy” 1485-yil 89 bob, 7215 bayt ta'limiy-axloqiy doston aruzning mutaqorib bahrida Iskandar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rafiyev A. , G'ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T. , “Sharq”, 2013.
2. Erkaboyeva N. Q. Adabiyot fanidan savol-javoblar to'plami. T. “Navro'z”, 2018.
3. Golish L. V. , Fayzullayeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T. , “Iqtisodiyot”, 2012.
4. “Umumta'lim fanlari metodikasi” jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018. 5. “Til va adabiyot ta'limi” jurnali, 1-12 sonlar, 2018